



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
FARMOYISHI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 23 - noyabr

75-8-0-F/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 73-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Karlar jamiyatining 2021-yil 29-avgustdagi 01-01/202-son hamda viloyat Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 3-noyabrdagi 22-04-10/5271-son xatlarini inobatga olib:

1. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) viloyat budjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Karlar jamiyati viloyat bo‘limiga bo‘lim xodimlarining joriy yil uchun oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun 44 027 000 (qirq to‘rt million yigirma yetti ming) so‘m mablag‘ ajratsin.

2. Karlar jamiyati viloyat bo‘limi (K.Muminova) ajratilgan mablag‘ning amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta‘minlasin.

3. Viloyat Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Husanov) ajratilgan mablag‘ning belgilangan tartibda maqsadli sarflanishini nazorat qilsin.

4. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Mamanov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.